

Tarix

1. O'rta Osiyoga bostirib kirgan yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashga kim boshchilik qilgan?
A) Shiroq B) Spitaman C) Frada
D) To'maris
2. Gannibal boshchiligidagi karfagenliklar Shimoliy Italiya hududiga bostirib kirib, mil.avv. 216-yilda qaysi jangda rimliklar armiyasini tor-mor etgan?
A) Sitsiliya orollaridagi jangda
B) Karfagen qirg'oqlaridagi jangda
C) Zama yaqinidagi jangda
D) Kann yaqinidagi jangda
3. Arab xalifaligiga qarshi ko'tarilgan "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloniga kim rahbarlik qilgan?
A) Rofe ibn Lays B) Mahmud Torobiy
C) Hoshim ibn Hakim D) Abu Muslim
4. Qo'shinni yetti qo'lga (qismga) bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib Amir Temur joriy qilganligi haqida ma'lumot bergan tarixchini toping.
A) Ibn Arabshoh B) Muhammad Narshaxiy
C) Ibn Xaldun D) Sharafiddin Ali Yazdiy
5. Nuqtalar o'rniga mos keladigan javobni qo'ying. O'rta asrlarda Germaniya:
1) Frankoniya; 2) Gabsburglar; 3) ...
A) Tyudorlar B) Saksoniyaliklar
C) Burbonlar D) Romanovlar
6. Qaysi Buxoro amirini xalq hurmat bilan "amiri ma'sum" (begunoh amir) deb atagan?
A) Doniyolbiy otaliq B) Muhammad Rahim
C) Shohmurod D) Haydar
7. 1830-yilda Parij shahrida boshlangan inqilobning maqsadi nima edi?
A) respublika tuzumini o'rnatish
B) cheklangan monarxiya tuzumini o'rnatish
C) imperiyani qayta tiklash
D) ishchilarga saylov huquqini berish
8. Quyidagi ma'lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini toping.
"U XVIII asrda Koreyada hukmronlik qilgan. Uning davrida so'roq qilish paytida qiynoqning eng og'ir turlari taqiqlangan va qul ayolning nevarasi ozod inson bo'lishi haqida deklaratsiya e'lon qilingan".
A) Shunchji B) Kojon C) Sechjon Buyuk
D) Yongjo
9. Qo'qon xonligida Xudoyorxondan so'ng taxtga o'tirgan hukmdorni toping.
A) Nasriddinbek B) Amir Abdulahad
C) Said Abdulla
D) Muhammad Rahimxon II
10. *"U Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ga uch yillik, besh yillik, yetti yillik yurishlarni amalga oshirgan. 1381-yilda Seiston, Mozandaranni egallagan. Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni o'z qo'l ostida birlashtirgan".*
Yuqoridagi ma'lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini toping.
A) Tug'luq Temur B) Xalil Sulton Mirzo
C) Amir Temur D) Kebek
11. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston jadidlarining asosiy g'oya va maqsadlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?
1) o'lkada rus-tuzem maktablarini kengaytirish loyihasini ishlab chiqish; 2) "usuli qadim"ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish; 3) konstitutsion parlament idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish; 4) Turkistonda podsho yakka hukmronligini mustahkamlash.
A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 2, 3
12. Qoraqalpoqlar Xiva xonligi tarkibiga kirgach, urug' va qabilalar ancha yirik guruhlariga birlashtirilib, ularni boshqarish uchun xon saroyining qaysi oliy amaldorlari tayinlangan?
1) otaliq; 2) ulus oqsoqoli; 3) biy; 4) beklarbegi.
A) 2, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 1, 3
13. Qadimgi kassiy qabilalari hozirgi qaysi davlat hududida yashagan?
A) Mo'g'uliston B) Ispaniya C) Eron
D) Koreya

14. To'g'ri moslashtirilgan javobni toping.
- A) *Qadimgi Rim – nomlar*
 - B) *Qadimgi Yunoniston – agora*
 - C) *Ahamoniylar davlati – falanga*
 - D) *Qadimgi Misr – forum*
15. Qo'qon hukmdori Erdonabiy Xitoy bilan imzolagan shartnomasiga ko'ra
- 1) Qo'qon xonligi o'zining Xitoyga qaram ekanligini tan oldi; 2) Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi o'rtaosiyolik savdogarlar to'laydigan bojlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berildi; 3) Qo'qon xonligi Xitoyga katta miqdorda tovon to'lagan hamda imperatorga qimmatbaho sovg'a-salomlar jo'natgan; 4) Xitoy hukumati Erdonabiyga Qashqar hukmdorlarini Sharqiy Turkistonga o'tkazmaslik shartini qo'ydi.
- A) 2, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 1, 3
16. No'g'ay xonligi parchalangach, qoraqalpoqlar Sirdaryoning quyi etagiga ko'chib kelib, 1556-yilda
- A) *Xiva xonligi tarkibiga kirgan*
 - B) *qozoqlarning Kichik Juz xonligi tarkibiga kirgan*
 - C) *Buxoro xonligi tarkibiga kirgan*
 - D) *Rossiya fuqaroligiga qabul qilingan*
17. Qadimgi Misrda qaysi xudo haqiqat va adolat ilohasi hisoblangan?
- A) *Xatxor* B) *Ptax* C) *Maat* D) *Isida*
18. Quyidagilardan Yevropada ilk uyg'onish va gumanizm vakilini toping.
- A) *Rober de Sorbon* B) *Roger Bekon*
C) *Kolyuchcho Salyutati*
D) *Iogann Gutenberg*
19. 1895-yil har xil buyum, narsalardan turlicha o'tuvchi ko'rinmas nurlarni kashf etgan olimni aniqlang.
- A) *F.A.Lesh* B) *K.Eber* C) *R.Virxov*
D) *V.K.Rentgen*
20. Xor, solistlar va orkestr uchun yozilgan "Matto bayon etgan buyuk musibat" asarining muallifini aniqlang.
- A) *Lyudvig van Betxoven*
B) *Iogann Sebastyan Bax*
C) *Volfgang Amadey Motsart*
D) *Rixard Shtraus*